


**NAMANGAN VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI
(2022- yil yanvar-fevral oylari uchun dastlabki ma`lumot)**

Viloyatning tashqi iqtisodiy faoliyati, xususan tashqi savdo sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning pirovard natijasi aholining turmush darajasiga bevosita o'z ta'sirini o'tkazadi.

2022- yil yanvar-fevral oylari yakuni bilan viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 188,3 mln.AQSh dollarini tashkil etib, 2021-yilning mos davriga nisbatan 131,2 % ni tashkil etdi.

**TASHQI SAVDO AYLANMASI VA BALANSI
(yanvar-fevral, mln.AQSh dollari)**

Ma`lumot uchun: Namangan viloyati tovarlar tashqi savdosi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat Tovar nomenklaturasi (keying o'rinlarda TIF TN) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o'rinlarda – XSST) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarini XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.

TSA da eksport hajmi 83,5 mln.AQSh dollariga (46,4 % ga ko'paydi) va import hajmi 104,8 mln.AQSh dollariga (21,2 % ga ko'paydi) yetdi. Hisobot davrida – 21,3 mln. AQSh dollari qiymatida passiv tashqi savdo balansi qayd etildi.

**NAMANGAN VILOYAT
BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO'LGAN DAVLATLAR
(2022- yil yanvar-fevral, mln.AQSh dollari, ulushi, % da)**

Top-10 davlatlar	TSA	Eksport	Import	Ulushi, % da
Rossiya Federatsiyasi	58,5	41,6	16,9	31,1
Xitoy Xalq Respublikasida	48,0	9,6	38,5	25,5
Turkiya	17,8	8,8	9,0	9,4
Qozog'iston	14,8	3,3	11,5	7,9
Qirg'iz Respublikasi	12,4	10,7	1,7	6,6
Turkmaniston	5,5	0,8	4,7	2,9
Ukraina	4,8	1,9	2,8	2,5
Korey Respublikasi	3,5	0,2	3,2	1,8
Germaniya	2,5	0,8	1,7	1,3
Hindiston	2,5	0,2	2,3	1,3

So'nggi yillarda hukumatimiz tomonidan sanoat tuzilmasini diversifikatsiya qilishda, eksportni qo'llab-quvvatlash, import o'rnini bosuvchi tovar va mahsulotlarni ishlab chiqarishni yanada oshirilishi natijasida, eksport tarkibida sezilarli o'zgarishga erishildi.

Namangan viloyati, jahonning 58 dan ortiq mamlakatlari bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSA ning nisbatan salmoqli hissasi Rossiya Federatsiyasida (31,1 %), Xitoy Xalq Respublikasida (25,5 %), Turkiyada (9,4 %), Qirg'iz Respublikasida (6,6 %), Qozog'istonda (7,9 %), Turkmaniston (2,9 %) va Ukraina (2,5 %) qayd etilgan.

Shuningdek, qo'shni davlatlar bilan o'zaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni ijtimoiy-iqtisodiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalardagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini ko'rish mumkin.

Xususan, qo'shni davlatlar Qozog'iston va Qirg'iz Respublikalari bilan TSA da so'nggi yillarda katta o'zgarishlar kuzatilyapti. Misol uchun, so'nggi uch yilda TSA Qirg'iziston va Qozg'iston bilan tashqi savdo aylanmasi oshgani kuzatilmoqda.

Boshqa davlatlar (qo'shni davlatlardan tashqari) bilan esa, TSA da eng yuqori ulush Rossiya, Xitoy, Germaniya, Turkiya va Hindiston davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.

Tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha 20 ta yirik hamkor-davlatlar orasidan ikta davlatda faol tashqi savdo balansi kuzatilgan, xususan, Rossiya Federatsiyasi (58,5 mln.AQSh.dollari), Qirg'iz Respublikasi (10,7 mln.AQSh.dollari), shular jumlasidandir. Qolgan 18 ta davlatlar bilan passiv tashqi savdo balansi saqlanib qolmoqda.

**NAMANGAN VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN
TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI (yanvar-fevral, ming.AQSh.dollari)**

Davlatlar	2020- y.	2021- y.	2022- y.
Rossiya Federatsiyasi	33085,3	39146,2	58508,3
Eksport	22170,5	25178,0	41610,1
Import	10914,8	13968,3	16898,2
Saldo	11255,7	11209,7	24711,9
Xitoy Xalq Respublikasi	35176,2	39560,3	48014,8
Eksport	6951,0	10657,5	9560,6
Import	28225,2	28902,8	38454,2
Saldo	-21274,1	-18245,3	-28893,7



Davlatlar	2020- y.	2021- y.	2022- y.
Turkiya	7000,3	9839,1	17764,0
Ekspart	2132,7	9839,1	17764,0
Import	4867,6	7242,4	8956,7
Saldo	-2734,9	-4645,7	-149,5
Qozog'iston	8444,1	20334,9	14827,7
Ekspart	3943,0	3203,3	3297,4
Import	4501,0	17131,6	11530,3
Saldo	-558,0	-13928,3	-8232,8
Qirg'iziston Respublikasi	12261,8	7846,5	12397,0
Ekspart	11255,9	6889,5	10726,4
Import	1005,9	957,0	1670,6
Saldo	10250,0	5932,5	9055,7
Turkmaniston	1092,1	1438,5	5451,7
Ekspart	576,0	544,8	785,6
Import	516,1	544,8	785,6
Saldo	60,0	-348,9	-3880,5
Ukraina	1406,3	2524,5	4761,4
Ekspart	1217,7	1262,1	1912,6
Import	188,5	1262,4	2848,8
Saldo	1029,2	-0,3	-936,2
Koreya Respublikasi	3401,4	1302,8	3481,7
Ekspart	16,4	11,7	245,0
Import	3385,0	1291,1	3236,8
Saldo	-3368,5	-1279,4	-2991,8
Germaniya	4662,2	1614,9	2510,3
Ekspart	631,2	138,5	779,3
Import	4031,0	1476,3	1731,1
Saldo	-3399,8	-1337,8	-951,8

Davlatlar	2020- y.	2021- y.	2022- y.
Hindiston	1298,8	4909,9	2496,5
Eksport	206,8	306,2	229,5
Import	1092,0	4603,7	2267,0
Saldo	-885,3	-4297,5	-2037,4
Litva	0,0	121,8	2150,5
Eksport	0,0	69,9	44,1
Import	0,0	51,9	2106,4
Saldo	0,0	18,1	-2062,2
Belarus	547,6	1169,6	2061,2
Eksport	417,4	315,3	416,3
Import	130,2	854,3	1644,9
Saldo	287,2	-539,1	-1228,7
Polsha	1484,8	2328,7	1897,1
Eksport	1268,3	1445,5	1117,0
Import	216,4	883,2	780,1
Saldo	1051,9	562,3	337,0
Tojikiston	252,4	536,0	1644,9
Eksport	163,1	316,6	735,9
Import	89,2	219,4	909,1
Saldo	73,9	97,3	-173,2
Eron Islom Respublikasi	951,5	543,9	1193,2
Eksport	214,6	0,0	264,9
Import	736,9	543,9	928,3
Saldo	-522,3	-543,9	-663,4
Fransiya	155,8	890,6	1173,3
Eksport	0,0	0,0	0,0
Import	155,8	890,6	1173,3
Saldo	-155,8	-890,6	-1173,3

Davlatlar	2020- y.	2021- y.	2022- y.
Malayziya	1400,5	1262,0	789,9
Ekspart	0,0	0,0	0,0
Import	1400,5	1262,0	789,9
Saldo	-1400,5	-1262,0	-789,9
Latviya	0,0	477,3	750,9
Ekspart	0,0	18,5	93,6
Import	0,0	458,8	657,3
Saldo	0,0	-440,3	-563,6
Italiya	615,8	1119,5	688,0
Ekspart	342,5	411,5	291,0
Import	273,3	708,0	397,0
Saldo	69,2	-296,5	-106,0
Cehiya	0,0	95,3	581,4
Ekspart	0,0	0,0	124,3
Import	0,0	95,3	457,1
Saldo	0,0	-95,3	-332,8

Viloyatda tashqi savdoni qo'llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida, 2022- yil yanvar-fevral oylarida, tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 53,4 % ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasidagi 2021- yilga nisbatan ulushi 36,7 % ga ko'paygan.

**NAMANGAN VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA
MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI
(yanvar-fevral % va ulushi)**




Boshqa xorijiy davlatlarning TSA si 2022- yil yanvar-fevral oylarida 2021- yilning shu davriga nisbatan ko'paydi (25,4 % ga) va jami TSA dagi ulushi 46,6 % ni tashkil etdi.

NAMANGAN VILOYATINING EKSPORTI (2022- yil yanvar-fevral)

Joriy yilning yanvar-fevral oylarida viloyatning eksportyorlar soni 226 tani tashkil etib, ular tomonidan 83,5 mln.AQSh.dollari (qimmatbaho metallar eksportidan tashqari) qiymatidagi (2021- yilning mos davriga nisbatan 46,4 % ga ko'paydi tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta'minlandi.

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 98,1 % ni tashkil etib, ular Sanoat tovarlari (82,0 %), Oziq-ovqat mahsulotlari (9,7 %) va Kimyo mahsulotlari (1,9 %) hissasiga to'g'ri kelmoqda.

EKSPORT TARKIBI
(2022- yil yanvar-fevral, ulushi, % da)





- Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar
- Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar
- Qora metal
- Mashinalar va transport asbob-uskunalar
- Sanoat mahsulotlari
- Xizmatlar
- Boshqalar

**MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARGA EKSPORT TARKIBI
(2022- yil yanvar-fevral)**

XSST tarkibi	Mln.AQSh dollari			Umumiy hajmga nisbatan, % da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
Jami eksport	83,5	60,2	23,3	100,0	100,0	100,0
shu jumladan:						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	8,1	3,9	4,2	9,7	6,5	18,0
Qora metallar	0,9	0,8	0,1	1,1	1,3	0,4
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	1,5	1,5	0	1,9	2,5	0
Sanoat tovarlari	68,5	50,2	18,3	82,0	83,4	78,6
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	1,5	1,5	0	1,9	2,5	0
Xizmatlar	1,6	1,2	0,4	1,9	2,0	1,7
Boshqalar	1,4	1,1	0,3	1,5	1,8	1,3

MDH mamlakatlari va boshqa mamlakatlarga eksportning yo'nalishi bo'yicha farqlanishlar mavjudligi kuzatilmoqda. Xususan, MDH mamlakatlariga eksportning asosiy qismi oziq-ovqat mahsulotlariga to'g'ri kelmoqda, keyingi o'rinlarda eksport hajmi bo'yicha asosan yengil sanoat tovarlari, qora va rangli metallar, mashina va asbob-uskunalar va kimyo mahsulotlariga to'g'ri kelmoqda.

**MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR
VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI**
(yanvar-fevral, % va ulushi,)




2022- yilning yanvar-fevral oyi yakunida tovar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkor davlatlar tarkibida Rossiya Federatsiyasi (eksport umumiy hajmining 49,8 %), Qirg'iz Respublikasi (12,8 %), Xitoy Xalq Respublikasi (11,5 %), Turkiya (10,5 %), Qozog'iston (3,9 %), Ukraina (2,3 %) va Polsha (1,3 %) davlatlari saqlanib qolmoqda, hamda ularning jami eksportdagi ulushi 92,3 foizni tashkil etmoqda.

Tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha yettita asosiy hamkor davlatlardan Rossiya Federatsiyasi eksportdagi ulushi bo'yicha peshqadamlikni saqlab qolmoqda.

Hamkor mamlakatlarning tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha geografiyasi 2021- yining mos davriga nisbatan 32 davlatdan 31 davlatga kamaydi.

NAMANGAN VILOYAT EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2022- yil yanvar-fevral,% da)



- Rossiya Federatsiyasi
- Qirg'iz Respublikasi
- Xitoy Xalq Respublikasi
- Turkiya
- Qozog'iston
- Ukraina
- Polsha

**TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTIDAGI YIGIRMATA
YIRIK HAMKOR DAVLATLAR
(yanvar-fevral)**

Davlatlar	Ming.AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		O'rni	
	2021- y.	2022- y.	2021- y.	2022- y.	2021- y.	2022- y.
Rossiya Federatsiyasi	25178,0	41610,1	110,9	165,3	1	1
Qirg'iz Respublikasi	6889,5	10726,4	106,0	155,7	3	2
Xitoy Xalq Respublikasi	10657,5	9560,6	91,0	89,7	2	3
Turkiya	2596,7	8807,2	105,5	3,3 m	5	4
Qozog'iston	3203,3	3297,4	70,0	102,9	4	5
Ukraina	1262,1	1912,6	124,7	151,5	8	6
Polsha	1445,5	1117,0	170,8	77,3	6	7
Turkmaniston	544,8	785,6	31,9	144,2	10	8
Germaniya	138,5	779,3	33,2	5,6 m	17	9
Tojikiston	316,6	735,9	2,1 m	2,3 m	13	10
Azerbadjon	91,3	469,8	102,0	5,1 m	21	11
Belarus	315,3	416,3	156,0	132,0	14	12
Portugaliya	980,4	398,8	2,6 m	40,7	9	13
Italiya	411,5	291,0	51,4	70,7	11	14
Eron	0,0	264,9	100,0	100,0	-	15
Koreya Respublikasi	11,7	245,0	65,0	20,9 m	29	16
Belgiya	0,0	234,2	100,0	100,0	-	17
Hindiston	306,2	229,5	41,8	75,0	15	18
Isroyil	100,3	211,4	41,0	2,1 m	20	19
Guruziya	50,7	173,6	52,0	3,4 m	24	20

Ushbu mamlakatlarga eksport qilinayotgan tovarlar tarkibiga asosan oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar, sanoat tovarlari va turli xil tayyor buyumlar kiradi.

Xizmatlar eksporti hajmi 1616,8 ming.AQSh dollarini yoki jami eksport hajmining 1,9 % ini tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 4,3 martaga ko'payganligi kuzatildi.

TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI

To'qimachilik mahsulotlari eksporti hajmining oshishi bevosita paxta xomashyosi o'rniga tayyor mahsulot ishlab chiqarish va qo'shimcha qiymat yaratish maqsadida amalga oshirilgan islohotlarning natijasi ekanini ko'rish mumkin. Jumladan, joriy yilda 68,5 mln.AQSh dollarlik to'qimachilik mahsulotlari eksporti amalga oshirilib, umumiy eksportning 82,0 % ini tashkil etdi va o'tgan yilga nisbatan 144,1 % ga o'sdi.


Viloyatning to'qimachilik sanoatini diversifikatsiya qilish va tayyor mahsulotlar eksportini rag'batlantirish borasidagi amaliy ishlari natijasida, viloyatimizning ushbu sohadagi salohiyati oshib bormoqda.

NAMANGAN VILOYATINING IMPORTI (2022- yil yanvar-fevral)

2022- yil yanvar-fevral oyilarida import hajmi 104,8 mln.AQSh dollarini va 2021- yilning mos davriga nisbatan 121,2 % ni tashkil etdi.

Import tarkibida eng katta ulushi, mashinalar va transport asbob-uskunalari (28,3 %), Kimyo mahsulotlari (25,1 %) hisobiga to'g'ri keldi.

IMPORT TARKIBI
(2022- yil yanvar-fevral, ulushi, % da)



- Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar
- Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar
- Qora metal
- Mashinalar va transport asbob-uskunalari
- Boshqalar

Tovar va xizmatlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2022- yilning yanvar-fevral oylarida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 18,3 mln.AQSh dollariga ko'paydi va 104,8 mln.AQSh dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi esa 0,8 ming.AQSh dollariga yetdi.

**MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARDAN IMPORT TARKIBI
(2022- yil yanvar-fevral)**

XSST tarkibi	Mln.AQSh dollari			Umumiy hajmga nisbatan, % da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
Jami import	104,8	40,3	64,5	100,0	100,0	100,0
shu jumladan:						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	18,1	13,1	5,0	17,3	32,5	7,7
Qora metallar	7,6	4,0	3,6	7,3	9,9	5,6
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	26,3	6,0	20,3	25,1	14,9	31,5
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	29,6	13,1	16,5	28,3	32,5	25,6
Boshqalar	23,2	4,1	19,1	22,0	6,8	29,6


Importning eng katta ulushi, jumladan, Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar mahsulotlar (32,5 %) mashinalar va transport asbob-uskunalari (32,5 %), hamda MDH mamlakatlariga to'g'ri keladi, boshqa xorijiy mamlakatlarga esa eng katta ulush Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar (31,5 %), mashinalar va transport asbob-uskunalari (25,6 %) va hissasiga to'g'ri keladi.


Joriy davrda import qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibi tahlili shuni ko'rsatdiki,

2021- yilning mos davriga nisbatan Mashina va asbob-uskunalar 28,3 % Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar importining ulushi 17,3 % ga oshdi, kimyo mahsulotlari va buyimlari importining ulushi 25,1 % ga oshdi, ga oshdi.

**MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARDAN TOVAR
VA XIZMATLAR IMPORTI**

(yanvar, % va ulushi)





Hisobot davri yakunlariga ko'ra, import bo'yicha hamkor davlat-lar orasida Xitoy Xalq Respublikasi umumiy import hajmida 36,7 % ulushi bilan Rossiya Federatsiyasini 16,1 % ortda qoldirgan holda, birinchi o'rinni egalladi.


**TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTIDAGI YIGIRMATA YIRIK HAMKOR DAVLATLAR
(yanvar-fevral)**

Davlatlar	Ming. AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		O'zni	
	2021- y.	2022-y.	2021- y.	2022-y.	2021- y.	2022-y.
Xitoy Xalq Respublikasi	28902,8	38454,2	116,9	133,0	1	1
Rossiya Federatsiyasi	13968,3	16898,2	41,3	121,0	3	2
Qozog'iston	17131,6	11530,3	100,7	67,3	2	3
Turkiya	7242,4	8956,7	2,0 m	123,7	4	4
Turkmaniston	893,7	4666,1	2,1 m	5,2 m	12	5
Koreya Respublikasi	1291,1	3236,8	70,8	2,5 m	7	6
Ukraina	1262,4	2848,8	123,4	2,2 m	8	7
Hindiston	4603,7	2267,0	25,2	49,2	5	8
Litva	51,9	2106,4	3,6 m	40,5 m	31	9
Germaniya	1476,3	1731,1	129,3	117,3	6	10
Qirg'iz Respublikasi	957,0	1670,6	21,6	174,6	11	11
Belarusiya	854,3	1644,9	116,7	192,5	15	12
Fransiya	890,6	1173,3	40,6	131,7	13	13

Davlatlar	Ming. AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		O'rni	
	2021- y.	2022-y.	2021- y.	2022-y.	2021- y.	2022-y.
Eron	543,9	928,3	5,4 m	170,7	17	14
Tadijgiston	219,4	909,1	31,1	4,1 m	22	15
Malaziya	1262,0	789,9	107,2	62,6	9	16
Polsha	883,2	780,1	1,6 m	88,3	14	17
Latviya	458,8	657,3	0,5	143,3	18	18
Gonkong	109,9	530,2	2,6 m	4,8 m	25	19
Shvedsariya	242,6	524,7	115,6	2,1 m	21	20

2021- yining mos davriga nisbatan 48 davlatdan 47 davlatga kamaydi.

**NAMANGAN VILOYAT IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR-NING ULUSHI
(2022- yil yanvar-fevral % da)**



Olti yirik hamkor davlatlar (Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Turkiya, Qozog'iston, Turkmaniston va Koreya Respublikasi) jami importning 79,9 % ini tashkil qiladi, bu 83742,3 ming.AQSh dollarini tashkil etadi.

Mamlakatdagi sarmoyaviy muhit yaxshilangani sari va ushbu sohada amalga oshirilgan islohotlar natijasida mashina va uskunalar, shuningdek, ularning qismlari importining o'sishi tabiiydir. Shunday qilib, Xitoy, Rossiya, Qozog'iston, Turkiya va Hindiston tomonidan kiritilgan katta hajmdagi investitsiyalar natijasida, mahsulotlar importi hajmida ushbu mamlakatlarning yuqori ulushi saqlanib qolmoqda.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat
va savdo statistikasi bo'limi
Tel.:(69)-211-72-00**